

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI
TABIATSHUNOSLIK FAKUL'TETI**

REFERAT

MAVZU: Yevropa qit'asi tabiiy geografik rayonlari: shimoliy
g'arbiy shpisbergen orollari (islandiya fenosikandiya)

BAJARDI:

**Haydarova Kamola
302 - guruh talabasi**

Jizzax 2010

REJA:

KIRISH: Yevropa qit'asi tabiiy geografik o'lkasi haqida umumiy
tushuncha

ASOSIY QISM:

1. Shpisbergen orollari
2. Islandiya
3. Fenoskandiya

XULOSA:

Yevropa shakllanish tarixi, geologik asosi, relyefi, iqlimi va tabiiy sharoitiga ko'ra bir-biridan tubdan farq qiluvchi bir necha tabiiy geografik o'lkalarga bo'linadi. Bu o'lkalarni o'rganar ekanmiz, ularni alohida o'lka sifatida ajratilishiga albatta asos borligiga amin bo'lamiz.

Yoshi va litologik tarkibidagi tafovutga qaramasdan Fennoskandiya relyefining tarkib topish tarixi ozmi-ko'pmi hamma joyda bir xil.

To'rtlamchi davrda Fennoskandiya bir necha marta muz bilan qoplangan va muzlik vujudga keladigan markaz bo'lgan. Muzliklar va muz suvlari muzlik relyefining ajoyib komplekslarini vujudga keltirgan.

Fennoskandiya 56° shimoliy kenglik bilan 71° shimoliy kenglik orasida joylashganligi sababli iqlim juda qattiq, bulutli va tunmanli kunlar ko'p, kuchli shamollar esib turadi. Iliq oqimli siklon sirkulyasiyasi bo'lib turadigan Atlantika okeaniga yaqin bo'lganidan bu yerda yog'in-sochin serob va qish davomida ob-havo shu kenglikdagi boshka joylarga nisbatan iliqroqdir. Eng janubini xisobga olmaganda yoz qisqa va salqin, iyulning o'rtacha haroratsi janubda 17°S dan shimolda $10-12^{\circ}\text{S}$ gacha tushadi. Yog'in turli joyda turli miqdorda yog'sa ham (g'arbda yiliga 2-3 ming mm va sharqda 400-600 mm) hamma joyda bug'lanishga nisbatan ortiq, natijada namgarchilik ortiqcha, botqoqlar serob, katta potensial suv energiyasi zapaslariga ega bo'lgan sersuv daryolar ko'p.

Ko'pchilik rayonlarda vegetasiya davri 120 kunga yetmaydi. Bu esa faqat boreal o'simliklar uchun qulaydir. G'arbiy Yevropa qarag'ay-yel taygasi asosiy o'simlik tipi xisoblanadi. Yirik botqoqliklar, torfzorlar va vereskzorlar ko'p. Iqlim sharoiti dehqonchilik uchun

uncha ko'lay emas. Ana shuning uchun ham tabiiy landshaftlar, jumladan o'rmonlar ham, yaxshi saqlanib qolgan. O'rmon muxim tabiiy resurs bo'lib, Finlyandiya, Shvesiya va Norvegiyaning eksportida muxim o'rin tutadi, Gidroresurslardan elektr energiyasi olishda keng foydalaniladi. Norvegiya bilan Shvesiya dunyoda eng ko'p elektrlashtirilgan mamlakatlardir. Fennoskandiya temir va mis rudalariga hamda qurilish toshlariga boy.

Tog'lik oblast Fennoskandiyaning g'arbiy tog'li qismi ikkita yirik orografik birlik: Skandinaviya tog'lari va Norlandiya yassi tog'ligidan iborat. Skandinaviya tog'lari shimoli-sharqiy yo'nalishda cho'zilgan o'rtacha balandlikdagi usti yassi to'lqinsimon, tog'liklar-fyeldlardan iboratdir.

Fyeldlarni tektonik vodiylar ayrim massivlarga ajratib qo'ygan. G'arbdan fordlar, sharqdan daryo vodiylari va fordsimon ko'llar ana shu vodiylar bo'ylab kirib borgan.

Skandinaviya tog'larining sharqiy yon bag'ri g'arbiy yon bag'ridan qiyarok, lekin Normandiya yassi tog'ligiga jarlik hosil qilib tik tushadi. Skandinaviya tog'laridan Normandiya yassi tog'ligiga o'tiladigan yon bag'ir qattiq bukilgan, bu yerda uzun f'ordsimon ko'llar va chuqur daryo vodiylari hosil bo'lgan.

Skandinaviyaning sharqiy qismini kesib o'tadigan tektonik yoriqlar ko'pincha shimoliy-g'arbiy yunalishdadir. Yer yuzasi zina shaklida bo'lganidan bunday yoriqlarda serostona konskvent daryolar hamda trog tipidagi ko'l shaklida kengayib ketgan suvlar bor. Ba'zi daryolar quyi oqimida anchagina kengash terrassali vodiylarda oqadi.

Yassi tog'liklar ustida pastroq ayrim kryajlar, morena tepaliklari va qator-qator ozlar qad ko'tarib turadi. Lekin yassi botqoqliklar va qalin o'rmonlar asosiy fonni tashkil etadi. Shvesiyaning daraxt tayyorlanadigan asosiy yel va qarag'ay o'rmonlari shu yerdadir.

Tog'li Fennoskandiyaning sharqiy qismida g'arbiy qismiga nisbatan o'rmonlarning ko'p bo'lishiga namgarchilikning kamligi, yozi issiq, uzoq davom etishi (iyulning o'rtacha haroratsi $14-15^{\circ}\text{S}$), shuningdek yumshok muzlik yotqiziqlari ustida paydo bo'lgan qalin va yaxlit podzol tuproqlar mavjudligi sababdir.

Tekislik oblasti Fennoskandiyaning tekislik qismi butunlay Baltika qalqoni doirasida joylashgan. G'arbiy Yevropadagi boshqa tekisliklardan farq qilib, bu joyning yer yuzasi eroziyaga chidamli kristall va metamorfik jinslardan tuzilgan. Markaziy Shvesiya pasttekisligidagina qumtosh va kembriy-silur slanets hamda oxaktoshlardan iborat cho'kindi jinslar qoldiqlari uchraydi.

Skandinaviya muzliklarining chekinish bosqichlarida qadimgi Baltika dengizining qirg'oq chiziqlari bor necha marta o'zgargan va transgressiyalar bo'lgan. Bir necha transgressiya oqibatida Markaziy Shvesiya pasttekisligida va qisman Finlyandiyaning Markaziy Ko'l pasttekisligida morena qoplami yuvilib ketgan va dengiz qumlari hamda gillari yotkizilgan. Biroq transgressiyalar uzoq davom etmaganligidan Fennoskandiya tekisliklarining muzlik relyefi umuman kam o'zgargan. Suv ostida qolgan rayonlarda asosan tuproq-grunt xarakteri o'zgarib, mayda donali gil fraksiyalar ko'paygan. Bu fraksiyalar podzol tuproqlarning gilli va qumok turlarining paydo bo'lishiga katta ahamiyatga ega.

Fennoskandiya tekisliklarining Atlantika okeanidan ancha uzoq bo'lganligi hamda Skandinaviya tog'lari bilan to'silganligi tufayli mo'tadil kengliklarning dengiz havosi iqlimga kam ta'sir qiladi hamda Arktika havosi bilan kontinental mo'tadil havo tez-tez kirib keladi. Tekisliklar iqlimi uchun qishning uzoq hamda sovuq bo'lishi, G'arbiy Yevropadagi eng past absolyut harorat, qorning uzoq yotishi, kech ko'klamda va erta kuzda tez-tez sovuq urishi xarakterlidir. Yoz qisqa bo'lib, janubda harorat 17°S , shimolda 11°S . Fennoskandiyaning tog'li qismiga nisbatan yog'in kam bo'lishiga qaramasdan suv kam bo'lganligidan nam serob bo'ladi.

Fennoskandiyaning tekislik qismi G'arbiy Yevropaning eng sero'rmon qismidir. Chunonchi, Finlyandiyada mamlakat maydonining taxminan 70% i o'rmon bilan band. Ko'pgina o'rmon massivlarini botqoq bosgan. Oblastning turli rayonlarida Yer yuzasi 15% dan 45%gacha botqoqlik bilan qoplangan. Shimoldagi baland rayonlarda botqoq bosgan tayga o'rmonlari bilan birgalikda tunturi tog'-tundra o'simliklari ham uchraydi va landshaft o'rmon-tundra landshaftlariga o'xshab ketadi.

Fennoskandiya tekisliklari asosan pastqam tekisliklardir. Faqat ikki joyda: Finlyandiyada Ounasselkya va Manselkya, Shvesiyada Smoland qirlaridan iborat. Ounasselkya, Manselkya sertepa qirlari balandligi 400-600 m keladigan past baland gryadalardir. Finlyandiyada bunday o'rmonsiz tepaliklar "tunturi" deb ataladi. Tundra so'zi ana shundan kelib chiqqan.

Shvesiyaning janubida Baltika qalqonining gumbaz shaklida ko'tarilgan uncha baland bo'lmagan qismida Smoland qirlari bor.

Smoland qirlari o'z strukturasiga ko'ra, markazi baland janubi, g'arbi va sharqi bir oz qiya, bu qirlar shimolda Markaziy Shvesuiya Ko'l pasttekisligining tektonik depressiyasiga tik tushgan. Smolandning yon bag'irlari markazidan atrofga oqadigan ko'p serostona daryolar bilan parchalangan, bu daryolarning vodiylari tektonik yoriqlardan o'tadi.

Islandiyani ko'pincha olov va muzlar oroli deyishadi. Butun orol boshdan-oyoq to'rtlamchi va uchlamchi davr bazaltlaridan tarkib topgan. Bu bazaltlar shimoliy Atlantika quruqligi cho'kkanda paydo bo'lgan chuqur yoriqlardan oqib chiqqan. Bazalt qoplamlari ko'pdan-ko'p platolar hosil qilgan. Bu platolar vertikal xarakatlar natijasida turli xil balandlikka ko'tarilib qolgan. Ko'pchilik platolarning o'rtacha balandligi 400-600 m ular dengizga yoki pasttekislikdan iborat kambar soxillariga tik tushgan. Pasttekisliklar orol maydonining bor-yo'g'i 7% ini tashkil etadi. Qirg'oq ayniksa, shimol va shimoli-g'arbda juda uyilib ketgan, bu yerlarda f'ordlar va keng qo'ltiqlar ko'p uchraydi.

Islandiyadagi ko'pgina platolarning tepalari muz bilan qoplangan. Ulardan eng yiriklari Vatna-Yyoko'l, Xovs-Yyoko'l, Lang-Yyoko'l, MindAls-Yyoko'l muz massivlaridir. Islandiyada xozirgi muzliklarning umumiy maydoni taxminan 11,8 ming/km². Islandiya hamma faslda yomgir ham, qor ham yog'ishi mumkin. Tez-tez tuman tushib, qattiq shamol esib turadi. Yoz salqin, odatda, o'rtacha oylik xarorati 10°S dan past bo'ladi.

Bu sharoit daraxtlar o'sishi uchun noqo'laydir. Qayin, tol, chetan, archalarning (balandligi 2-3 m) kichik-kichik chakalakzorlari Islandiyada "o'rmonlar" deb ataladi va janubdagi atrofi berk vodiylarda yoki issiq buloqlar atrofida bo'ladi. Qolgan rayonlarda mox-lishaynik

yoki pakana buta tundralari, torfzorlar keng tarqalgan. Platolardagi katta-katta maydonlar qoramtir chirksimon lishayniklar bilangina qoplangan. Shuning uchun ham bunday joylar qora cho'llarga o'xshaydi.

Orol janubiy qismining 6% ga yaqin maydoni yaylov sifatida foydalaniladigan turli o'tlar bilan qoplangan o'tloqlardir.

Yevropa tekisligi Yevropaning eng yirik tabiiy o'lkasidir. Yer yuzasi tekis hamda territoriyasi katta bo'lganidan va geografik xolati xususiyatlariga ko'ra kenglik bo'ylab cho'zilgan landshaft xonalari aniq namoyon bo'lgan. Bu esa o'lkaning o'ziga xos tabiiy geografik xususiyatidir. O'lkaning asosiy qismi Germaniya-Polsha past-tekisligi, Yutlandiyani va Shimoliy hamda Baltika dengizlarining shu atrofdagi orollarini o'z ichiga oladi. Qisqarok bo'lishi uchun bu territoriyalarning hammasini Germaniya-Polsha tekisligi oblasti deb ataymiz.

O'lka g'arbiy qismi geologik taraqqiyotning umumiy obzorda tilga olingan xususiyatlari bu yerda akkumulyativ muzlik va suv-muzlik relyef shakllari aniq aks etgan tekisliklar hosil bo'lishiga olib kelgan. To'rtlamchi muzlik cho'kindilari va qisman sayoz dengiz va daryo cho'kindilari yer yuzasida eng keng tarqalgan yotqiziqlardir. Qalinligi 100-200 m keladigan to'rtlamchi davr jinslari tagidan ba'zi joylarda uchlamchi va mezovoy qumtoshlari hamda oxaktoshlari chiqib turadi.

Oblastning g'arbida to'rtlamchi yotqiziqlar riss davrining kuchli darajada yuvilgan muzlik va muzlik suvlari cho'kindilaridan va muzlikdan keyingi dengiz hamda daryo oqiziqlaridan iborat.

Baltika morena gryadasi landshaftlari ancha xilma-xil. Bu yerda qator parallel gryadalar uchraydi, bu gryadalar vyurm muzliklari turli bosqichlarida egallagan joylarga tugri keladi.

Bu pastliklar landshaftlarining shakllanishi Baltika morena gryadasida vyurm muzliklari uzoq vakt turib qolganligi bilan bog'liqdir. Muzliklar muz suvlari va daryo suvlari yo'lini to'sib ko'ygan. Daryolarning ba'zi qismlari kenglik bo'ylab, ba'zi qismlari meridian bo'ylab oqadi.

Bu o'lka asosan gersin tektonika oblastidadir. Faqat Irlandiya, Buyuk Britaniyaning g'arbi va shimoli bunga kirmaydi. Yuqorida aytilganidek, Gersin Yevropasi deganda tektonik yoki morfostrukturali territoriyalargina emas, balki umuman landshaft ham tushuniladi. Britaniya orollari va Gersin Yevropasini bir o'lkaga birlashtirish to'g'ridir. Chunki Britaniya orollari ko'pgina landshaft xususiyatlariga ko'ra materikdagi Gersin Yevropasining bir qismidir. Bu orollar materik shelfida bo'lib, materikdan to'rtlamchi davrdagina ajralgan.